

## QADIMGI XORAZMDA SIYOVUSHIYLAR SULOLASI TARIXI VA TARIXSHUNOSLIGI

**Bekmuradov Sandjar Tursunmamatovich**

Toshkent amaliy fanlar universiteti, Tarix kafedrasi katta o‘qituvchisi

[stb.uz.com@gmail.com](mailto:stb.uz.com@gmail.com)

**Muxtorova Gulhayo Alisher qizi**

Toshkent amaliy fanlar universiteti, Tarix kafedrasi 1-kurs talabasi

### ANNOTATSIYA

Bugungi kunda Markaziy Osiyoning xususan, Vatanimiz tarixining barcha cirralari, masalalari to‘liq yechimini topgan deb bo‘lmaydi. Hali o‘rganilishi, tadqiqot etilishi kerak bo‘lgan talay masalalar mavjud. Jumladan, mazkur maqolada ko‘rib chiqilgan Xorazmshohlar, ayniqsa Siyovushiylar sulolasi masalasi ham deyarli o‘rganilmagan. Shu boisdan maqolada mazkur sulola tarixiga oid manbalar, tadqiqotlar hamda ularning tarixshunosligiga oid bir qator masalalarning tahlillari o‘rin olgan. Afsuski bu davrga oid asarlar ham ko‘p emas.

Maqolada foydalanilgan sharq va g‘arbgan oid manbalar orqali, qolaversa zamonamiz olimlarining ilanishlar va qarashlari milliy tariximizning kemtik yerlarini to‘ldirishda ma’lum darajada yordam beradi. Mazkur maqola asarda yoritilgan tarixiy voqelar hamda ushbu jarayonlar sodir bo‘lgan toponimlar xaqida ma’lumot beradi. Sulola tarixiga oid turli hildagi qarashlar va tendensiyalar ko‘rib chiqiladi.

**Kalit so‘z:** Siyovush, Abu Rayhon Beruniy, Makedoniyalik Iskandar, Kayxusrav, Fratafern, Afrosiyob, Avesto, Kvint Kursiy Ruf, Strabon, Arrian.

O‘zbekiston tarixi chuqur ildizlarga va boy madaniy merosga, o‘lmas an’analarga ega zamin hisoblanadi. Uning har bir davridagi tarixini zamonaviy talab darajasida o‘rganish, siyosiy jarayonlarni yozma va madaniy manbalarga, zamonaviy tadqiqotlarga tayangan holda masalalarni tahlil etish muhim vazifa hisoblanadi. Zero, unda hali o‘rganilishi kerak bo‘lgan masalalar talaygina. Ayniqsa Qadimgi Xorazm tarixi masalasini ko‘radigan bo‘lsak, unda hukmronlik qilgan ilk sulola vakillari bo‘lgan Siyovushiylar tarixi haqida deyarli ma’lumotlar yo‘q. Bu sulola hukmdorlarining shajarasini aniqlash bir muncha mushkul. Boisi mazkur davr haqida ma’lumot beruvchi manbalar juda oz. Mavjud manbalarda esa faqat Siyovush, sulola asoschisi Kayxusrav, Farasman va uning Aleksandr Makedonskiy bilan munosabati haqidagi qisqa ma’lumotlardan iborat xolos.

Rus Sharqshunosi Sergey Pavlovich Tolstov aytganidek, “Qadimgi Xorazm – O’rta Osiyo Misri” – Insoniyat sivilizatsiyasining qadimiyligi izlarini izlayotgan arxeologlar qadimiy Xorazm zaminini o’rganish orqali katta muvaffaqiyatlarga erishdi. Ular Xorazm madaniyati, san’ati va tarixi O’rta Osiyo taraqqiyoti bilan uzviy bog’liqligini yana bir bor tasdiqladilar”.<sup>1</sup>

Xorazm nomi Zardushtiylik diniy matni bo’lgan “Avesto”da ham uchraydi. Unda Sharqiy Eron va O’rta Osiyodagi voqealar rivoji tasvirlanadi. Bu davrda jamiyat iqtisodiy tafovutning turli tabaqalaridan iborat bo’lgani haqida so‘z boradi. “Avesto”da birinchi davlatchilikni tashkil etgan ruhoniylar, qo’shinlar, dehqonlar, hunarmandlar va qullarning umumiyligi vazifalari haqida ma’lumot beriladi. Jumladan, unda, Markaziy Osiyoda birinchi davlatchilik rivojlangan mamlakat, miloddan avvalgi I ming yillikda shakllangan Siyovushiylar haqida ham so‘z ketadi. Shuningdek yana bir yozma manba Shohnoma asarida yozilishicha, Siyovush Eronliklarning qaxramoni bo’lgan qadimgi fors tilida “siyavush” – “qora boshli”, qadimga Turkiy tilda esa “xorasmius” – “qora sochli” degan ma’nolarni anglatgan.<sup>2</sup> Miloddan avvalgi I-mingyillikning I-yarmida mamlakatning nomi “Xvairizm” nomi bilan uchraydi.<sup>3</sup>

Yana bir bizgacha saqlanib qolgan qo’lyozmalardan, IX-X asrlarda yashab ijod etgan mutafakkur olim Abu Rayxon Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida ham Xorazmga oid ma’lumotlar o’rin olgan. Unga ko’ra, Kayxusravning Xorazmga kelishidan tarix ya’ni, davlat tuzulmalari boshlangan va ular Turklar ustidan hokimiyat yurg’iza boshlaganlar.<sup>4</sup>

Avestoning “Yasht” qismida Xorazm davlatida hukmronlik qilgan sulolalar to‘g’risida ma’lumotlar mavjud bo‘lib, unga ko’ra Xorazm zaminidagi ilk sulola vakili *Siyovush* (*Siyovushron*) va uning o‘g’li *Kayxusrav* 1200-1140-yillarda hukmronlik qilgani haqida aytildi. Shuningdek, Shoxnomaga binoan Siyovush Eron shohi Kovusning o‘g’li bo’lganligi hususidagi ma’lumotlar ham bor.<sup>5</sup> Asar voqeani quyidagicha ta’riflaydi: “Shoh o‘g’lini go‘daklik chog‘idayoq tarbiyasi bilan shug‘ullanishi uchun Rustamga topshiradi. Yigit balog‘atga yetgandan so‘ng Rustam bilan otasining saroyiga qaytadi. Shoh va saroy ayonlari Siyovushning barnoligiyu donoligi, bahodirligidan lol qolishadi. Shoh o‘g’lini yetti yil mobaynida imtihon qiladi sakkizinchchi yili siyovushga toj kiydirib Guliston mulki hokimligini unga topshiradi. Bu vaqtida Kovusning yosh rafiqasi ya’ni, Siyovushning o‘gay onasi Sudobaning unga

<sup>1</sup> Толстов С.П. Древний Хорезм. Опыт историко-археологического исследования. – Москва: Издание МГУ, 1948. – С. 17.

<sup>2</sup> Firdavsiy A. Shohnoma. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi nashryoti, 2012. – B. 148 b.

<sup>3</sup> Qorayev S. O‘zbekiston viloyatlari toponimlari// O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. – Toshkent, 2005. – B. 174-175.

<sup>4</sup> Abu Rayxon Beruniy. Qadimgi Xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tanlangan asarlar. – Toshkent, 1968. – B. 13.

<sup>5</sup> Firdavsiy A. Shohnoma. – B. 149.

*ishqi tushib unga xar hil hiyla uyushtiradi. Siyovush o‘z aybsizligini isbotlash uchun, hatto baland osmono ‘par bo ‘lib yonayotgan gulhandan ham eson-omon o‘tadi. Bu vaqtida Turon Shohi Afrosiyob Eronga hujum qiladi. Siyovush Sudobaning fitnasidan qutilish maqsadida ushbu urushda qo‘mondonlikni o‘z bo ‘yniga oladi. Podshoh uni Rustam hamroxligida jang maydoniga jo‘natadi ular Gurgoniylarni yengadi va sulkh tuzishga majbur bo‘ladi.*

*Rustam va Siyovush ishonch hosil qilish uchun, Afrosiyob qarindoshlari va turon zodagonlaridan Gurgonga<sup>1</sup> yuborishlarini va Afrosiyob qo‘shinini Jayhunning<sup>2</sup> narigi qirg‘og‘iga o‘tib ketishini, bosib olgan yerlarni bo‘shatishini so‘raydilar. Afrosiyob shunday yo‘l tutadi va Siyovush sulkh shartnomasiga imzo chekadi. Rustam nomani olib Kovus huzuriga boradi. Bu xabarni eshitgan Kovus g‘azablanib Afrosiyobning hiyla bilan sulhga erishganligini aytadi va ahdonmani buzib Afrosiyobga qarshi yurish qilishni buyuradi. Bu habarni eshitgan Siyovush hangu-mang bo‘lib qoladi, zeroki Siyovush suljni ham buzolmasdi, saroyga ham qaytib borolmasdi. Oxir oqibat Afrosiyobga noma yuborishga qaror qiladi. U Turon orqali boshqa yurtlarga bosh olib ketishga yo‘l berishini iltimos qiladi.*

*Afrosiyob saroy donishmandi Pironning maslahati bilan Siyovushning hohishini qabul qiladi natijada uni iliq peshvoz oladilar va o‘zaro do‘stlik aloqalarini mustahkamlash uchun qizi Farangizni Siyovushga nikoxlab beradi.*

*Siyovush Turonda jannatmonand qal‘a qurdiradi. Bu vaqtida Afrosiyobning ukasi Garsevaz unga xasad bilan qaray boshlaydi va o‘rtada adovat uyg‘onadi. Natijada Siyovushni hibsga olib boshini tanidan judo qiladilar. Pironning ko‘magi bilan besh oylik homilador Farangizga zarar yetkazilmaydi. Undan eng nomdor podshoh va komil inson Kayxusrav tug‘uladi. Kayxusrav otasini o‘ldirgan Garsevazdan qasos olib Xorazm zaminida Siyovushiylar sulolasiga asos soladi. Undan keyingi ikkita sulola vakillarining hukmronlik qilgan yillari haqida hech narsa aytilmaydi. Keyingi sulola vakili Saksafar (519-517) Farasman (329-320) va Xusrav (320-yillar) hukmronlik qilgani to‘g‘risida ham ma‘lumotlar bor”.*

Numizmatik yondashuvlarga ko‘ra, Xorazmda Afrig‘iylar sulolasigacha bo‘lgan davrda Siyovushiylar sulolasi nomi ostida uchta sulola xukmronlik qilgani aytildi.<sup>3</sup> 1. Kayxusrav sulolasi; 2. Farasmanlar sulolasi; 3. Artavlar sulolasi.<sup>4</sup> Farasmanlar

<sup>1</sup> Miletlik Gikatey (mill avv VI asr) ma‘lumotlari asosida Geradot (mill. avv. V asr) Ahamoniylar davridan avval girkanlar (Kaspiv dengizingin janubiy-sharqi, Gurgon daryosi havzasi), Parfiyaliklar (Shimoliy Xuroson), dranglar va tamanaylar (G‘arbiy Afg‘oniston) ning hududlari bilan tutashgan keng o‘lkada Xorazmiylar yashagani haqida ma‘lumotlar keltiriladi.

<sup>2</sup> Hozirgi amudaryoning qadimgi nomlaridan biri. Qadimgi turk tilida “Joy” va “Xun” so‘zlaridan kelib chiqqan, Xunnlar yashaydigan joy degan ma‘noni anglatadi. Eftaliylar (Oq xunnlar) davlati va Turk hoqonligi davrida ko‘p qo‘llanilgan nom sanaladi.

<sup>3</sup> Эшchanov Р.А. Хорезм в истории государственности Узбекистана// Ташкент: Издательство “Узбекистон файласуфлари миллий жамияти”, 2013. – С. 69-70.

<sup>4</sup> Там же. – С. 70.

sulolasidan keyin Artavlargacha bo‘lgan davr oralig‘ida Yuejilar<sup>1</sup> ham hukmronlik qilgan degan tahminlar ham bor.

Alovida takidlash joizki, Siyovushiyalar sulolasi vakillari Xorazmshohlar tarixda bosqinchilik yurishlarini amalga oshirmagan bo‘lsalarda, o‘z davlatlarini yaxlitligicha saqlab qolgan sulola vakillari xisoblanadi. Mazkur davr haqida so‘zlovchi manbalarning kamligidan bu sulola vakillarining davlat boshqaruvidagi olib borgan ishlari to‘g‘risida ma’lumot topish qiyin albatta. Faqat Farasman haqida fikr yuritilganda miloddan avvalgi 328-yilning bahorida O‘rta Osiyoga bostirib kirgan Makedoniyalik Aleksandr (Iskandar) huzuriga muzokara uchun sovg‘a-salomlar bilan kelganligi Arrian, Kvint Kursiy Ruf, Strabon shuningdek, zamonaviy tadqiqotchilardan V.M.Masson, Y.A.Rapoport, S.P.Tolstov va boshqalar tadqiqotlarida yozib qoldirilgan. Mayjud ma’lumotlar tahlil etilganda, oz bo‘lsada Aleksandr va Farasman o‘rtasida tuzilgan sulh jarayoniga nisbatan g‘arb tarixchilarining asarlarida keltirilgan yondashuvlar va fikrlar farqli ekanligiga guvih bo‘lish mumkin. Bu siyosiy jarayonda ba’zi manbalar sulk tuzishga Farasmanning o‘zi borgani haqida aytsa boshqalarida Fratafern, Farasman nomidan elchi bo‘lib borgani to‘g‘risida turlicha qarashlar mavjud. Bu tarixiy jarayon ham Siyovushiyalar tarixini chuqurroq yoritib berishdagi o‘rganilishi muhim bo‘lgan muammolardan biridir hisoblanadi.

Misol uchun Massonning fikriga ko‘ra, miloddan avvalgi 329-328-yillar qishida 1500 otliq hamroxligida Xorazmshoh Farasmanning elchixonasi sulk tuzish uchun kelgan deb yozadi.<sup>2</sup> Masson Farasmanning shahsan o‘zi emas balki uning elchisi sulh tuzish uchun yuborilgan deb yozadi, Arrian esa o‘zining “Aleksandrning yurishlari” asarida Xorazmlik podshoh “Fratafern” yoki “Farasman” haqida ma’lumot beradi<sup>3</sup>.

Arrianning fikriga ko‘ra, miloddan avvalgi 329-yilda Makedoniyalik Aleksandr Samarqandda turgan vaqtida degan man‘balar ham bor.<sup>4</sup> Farasman 1500 otliq askar qo‘riqchiligidagi shaxsan o‘zi Aleksandr yoniga keladi.<sup>5</sup> Xorazm xukmdori mazkur uchrashuv chog‘ida Aleksandrga xarbiy ittifoq tuzib Shimoliy qora dengiz va u yerdan *Kolxido*<sup>6</sup> kolxiya qabilasi va amazonkalarga qo‘shin tortib agar Aleksandr amr etsa kolxlar va amazonlarni bir vaqtning o‘zida *Evksin*<sup>7</sup> dengizi yaqinida yashovchi

<sup>1</sup> Бичурин Н. Я. Собрания сведений о народах, обитавших в Средней азии в древние времена. М. Л. 1950.

<sup>2</sup> Массон В.М. Страна Тысячи Городов. – Москва, 1966. – С. 125.

<sup>3</sup> Zoxir Alam. Qadimgi tarixchilar O‘rta osiyo haqida. – Б. 75- 92.

<sup>4</sup> Azamat Ziyo. O‘zbekiston davlatchiligi tarixi. – Toshkent: Sharq, 2000. – Б. 31.

<sup>5</sup> O‘sha yerda.

<sup>6</sup> G‘arbiy Gruziyaning yunoncha nomi. Miloddan avvalgi VI asrda Kolxido hududida Fasis, Dioskuriada yunon kaloniyalari vujudga kelgan, VI-II asrlarda Kolxido podsholigi bo‘lgan. Keyingi davrlarda Kolxido Gruziyada tashkil topgan turkiy davlatlar tarkibiga kirgan.

<sup>7</sup> Qora dengizning eng qadimgi mahalliy nomlaridan biri qadimgi gruzin sperma dengizidir Kolxido saspirov (sasperlar)ning qadimgi qirg‘ oq halqlaridan biri va ularning yashash joylari. – ispira (speri) nomidan keladi. Dengizning qadimgi yunon nomi Pont. Shuning dek “skif”nomi ham bor. Keyinchalik yunon kolonistlari tomonidanengiz Pont

qabilalarni zabit etishni taklif qiladi. Aleksandr Farasmanga tashakkur aytib u bilan do'stlik shartnomasini tuzib xozir *Pontiga* Qora dengizga yurish vaqtি emas deb taklifini rad etgan. Boisi shu vaqtida Aleksandr Spitamen qo'zg'olonini bostirish bilan band edi. Bu yerda Arrian ham Aleksandrning mavqeyini oshirish maqsadida, Xorazmshox Farasman o'zi kelgan deb yozgan bo'lishi tabiiy albatta.

Shu o'rinda Xorazm davlatining chegaralariga ham e'tibor qaratiladigan bo'lsa, A.Gutshmid va V.V.Bartoldlar Xorazm davlatining chegaralari haqidagi fikrlariga ko'ra, bu voqeа Xorazm hokimiyatining sharqiy Yevropaning janubi-sharqiy qismiga kengayganligidan dalolat beradi deb hisoblaydilar.<sup>1</sup>

Kvint Kursiy Ruf esa Aleksandr va Xorazmshohlar o'rtasidagi munosabatlari haqida yozib qoldirgan man'balariga ko'ra,<sup>2</sup> Makedoniyalik Aleksandr *Karmaninda*<sup>3</sup> bo'lganida uning qo'shini tarkibida yuzaga kelgan ocharchilik podshohning harakatlari natijasidir. Shu boisdan Shoh qayg'u sharmandaligidan qiyngalgan, chunki u juda ko'p azob-uqubatlarga sababchi bo'lganligi sababli odamlarini *Parfiya* va *Girkaniya* satrapi Fratafernga yuboradi. Ya'ni unga tuyalarda quruq rizq keltirishlarini so'ragan deb yozadi.

Arrian esa Fratafernning o'g'li Parfiya va Girkaniya satrapi Farasman Aleksandr huzuriga kelib unga oziq ovqat mahsulotlari berilgani haqida ma'lumot beradi. Hatto armiya islohoti davrida forslar armiyaga keltirilganda Fratafernning o'g'illari *Sisin* va Farasmanlar armiya tarkibiga kiritilgan. Bizningcha yuqoridagilarni inobatga olib, Fratafern Farasmanning otasi bo'lib shohlik vakolati to'liq Farasmanda ham bo'lgan. Shu sababli, Farasman Makedoniyalik Aleksandr bilan sulk tuzish va boshqa diplomatik aloqalarni ham shoh nomidan amalga oshirgan.

Zamonaviy tadqiqotchilardan biri Vaynberg ham Farasmanning Aleksandr bilan sulk tuzganligi va shu davrda Xorazmda shohlar hokimiyati bo'lganligi masalasiga to'xtalib o'tadi.<sup>4</sup> S.P.Tolstov ham Siyovushiy shohlar xonadonining o'z tamg'asi bo'lganligi haqida ma'lumot beradi<sup>5</sup> va qo'shimcha qilib madomiki Xorazmshox o'zi kelgan degan ma'lumotlar to'g'ri bo'lsa, demak, Xorazm Makedoniyalik Aleksandr davlati tarkibiga kirgan bo'lar edi. Lekin ko'plab g'arb olimlarining tadqiqotlari natiasi o'laroq xorazm davlati doim mustaqqil davlat bo'lgan<sup>6</sup>. Shu o'rinda yana bir

Evxinskiy Evksin mexmondo'st dengiz deb nomlana boshlaydi.

<sup>1</sup> Эшчанов Р.А. Хорезм в истории государственности Узбекистана. – С. 62.

<sup>2</sup> Там же.

<sup>3</sup> Iskandar Zulqarnayn bosib olgan Fosr davlati xaritasida Karmaniya bu hudud g' arbda Persis satrapligi, shimolda Parfiya, sharqda Gedroziya, janubda Fors ko'rfazi bilan chegaradosh edi. Karmaniya birinchi marta qadimgi yozuvlarda tarixchi polibiy tomonidan tilga olingan.

<sup>4</sup> Вайнберг Б.И. Монеты древнего Хорезма. – Москва: Издательство Наука главная восточной литературы, 1977. – С. 12.

<sup>5</sup> Толстов С.П. Древний Хорезм. – С.173-195.

<sup>6</sup> Azamat Ziyo. O'zbekiston davlatchiligi tarixi. – B. 30.

dalilga etibor qaratilsa, o‘z davrida Xorazm davlatida harbiy mahorati o‘z davri uchun yuksak pog‘onada bo‘lgan, o‘z harbiy lashkarlariga ega bo‘lgan Xorazm lashkarlari 120 minggacha bo‘lgani ma’lum<sup>1</sup>.

Shu o‘rinda tarixga bir nazar solsak, ma’lumki hech bir davrda sulola hukmdori bunday vaziyatda o‘zi elchi bo‘lib bormaydi. Diplomatik tarafdan qaralsa ham bu mumkin emas, urush vaqtida podshoning o‘zi dushmanning yoniga kelishi bu jangsiz yengilganini tan olish bilan barobardir. Zero Xorazm davlati janub va sharqda Ahamoniylar davlatidan mustaqil bo‘lib chiqayotgan vaqtida o‘z tasirini yo‘qotgan bo‘lsada shimoli-g‘arbda Qora dengiz Azov bo‘ylarigacha bo‘lgan yerlarda mavqeini saqlab qolgan edi<sup>2</sup>.

Aytish mumkinki, Farasman va Makedoniyalik Aleksandr o‘rtasida tuzilgan do‘stona ittifoq haqida inkor etib bo‘lmaydi, lekin Fratafern nomidan yuqorida tilga olingan Farasman rasmiy tarzda borgan. Rim tarixchisi Kvint Kursiy Ruf esa Xorazm podshosi Farasman haqida uni massaget va sak qabilalarining Aleksandr zulmiga qarshi kurashga qo‘shilganligi haqida ma’lumot beradi<sup>3</sup>, massaget va sak qabilalari Aleksandrga yengilganidan so‘ng Farasman bosh egib kelgan degan talqinda yozgan. Bu esa tarixiy faktlarga biroz teskari.

Strabon ham Xorazmshoxlar massaget elatlaridan tashkil topgan degan fikrni ilgari surgan<sup>4</sup>. Agar Xorazm sulolasini massaget elatlaridan tashkil topgan degan fikrga etibor qaratiladigan bo‘lsa, massagetlar va Xorazmshoxlar sulolasining kuchli davlat bo‘lib shakllanish davridagi tafovutlar bo‘lmas edi. Hatto Xorazm hukmdorlari o‘z tangalarini zarb etishni ham yo‘lga qo‘ygani, topilgan tanga namunalaridan bir tomonida podshoxning tasviri ikkinchi tomonida esa otliq askar tasviri tushirilgani kabi omillar ham Xorazmning nechog‘lik kuchli davlat bo‘lgani haqida tasvirlaydi<sup>5</sup>.

Aynan shu davrda pul tizimining joriy etilishi davlatchilik rivojidan dalolat berishi bilan bir qatorda iqtisodiy munosabatlar ravnaqi uchun turtki bo‘lgani ham shubhasiz. Ayniqsa savdo-sotiq ishlari gurkirab rivojlangan, sun’iy sug‘orish ishlarida boy tajriba egalari bo‘lishgan. Ma’lum bo‘lishicha yangi milodiy davr boshlanishi arafasida xorazm o‘z zamonasining eng qudratli va rivojlangan siyosiy, iqtisodiy, madaniy markazlardan biri bo‘lgan.

Yuqoridagi fikrlarning tahlillaridan kelib chiqgan holda shu fikrlarni takidlash joizki, qadimgi Xorazm zaminidagi ilk sulola Siyovushiylar manbalarda yarim afsonaviy deb yoritiladi zero, afsonalar negizida ham haqiqatlar yotadi; bu sulola

<sup>1</sup> Лунин Б.В. История Узбекистана в источниках – Ташкент: Фан, 1984. – С–28.

<sup>2</sup> Azamat Ziyo. O‘zbekiston davlatchiligi tarixi. – В. 31.

<sup>3</sup> Kvint Kурций Руф. История Александра Македонского. Издательство Московского университета, 1993. – С. 25.

<sup>4</sup> Saidboboyev Z. Tarixiy Geografiya. – Toshkent: “Noshir”, 2010. – В. 86-87.

<sup>5</sup> Вайнберг Б.И. Монеты древнего Хорезма. – С. 12.

hukmdorlari haqida ham fikr va yondashuvlar ko‘p; Xorazmshohlar boshqa davr yoki sulola hukmdorlaridan o‘zlarining davlat boshqaruvidagi o‘z strategiyasi bilan ajralib turadi.

Yevropa va O‘rtal Osiyo tarixshunoslarining bu sulola haqidagi fikrlari o‘rganilganda, quyidagi ikki hil tendensiyanı kuzatish mumkin. Yevropa tadqiqotchilari Xorazm davlati Makedoniyalik Aleksandrning satrapalaridan biri bo‘lganligini va Farasman unga bosh egib kelganligini takidlasalar, Sharq tadqiqotchilari esa bu diplomatik kelishuv bo‘lgan deb takidlaydilar. Zero, Frataferniga Aleksandr chopar jo‘natib undan yordam so‘raganligi ularning o‘zaro do‘stona aloqalari bo‘lganligini va Xorazm ham nechog‘lik kuchli davlat bo‘lganlini manbalarda guvohi bo‘ldik.

Farasman Fratafernning o‘g‘li bo‘lib, u bir necha bor Aleksandr huzuriga otasi va uning o‘zaro munosabatlari hamda kelishuvlari sababli tashrif buyurgan. Tadqiqotchilar o‘rtasida mana shu tashriflari haqida faqat kolxlar va amazonkalarga yurishi haqida yoziladi va bular xar hil fikrlar hamda qarashlarni keltirib chiqarmoqda. Shaxsan biz Xorazmshohlar va Aleksandr o‘rtasidagi aloqalari jarayonida asosiy ro‘l Farasmanda emas balki Fratafernda bo‘lgan deb o‘ylashimizga asos bor. U Kolxidoga yurish taklifi bilan u ikkita maqsadni rejalashtirgan bo‘lishi mumkin, lekin Akeksandr Hindistonga qarab yurish uyushtiradi zero, geografik jihatdan olib qaralsa ham Xorazm davlatining chegaralari bu davlatning harbiy salohiyati va davlatning qanchalik kuchli ekanligini isbotlaydi.

Shuningdek, o‘z davrida Xorazm davlati Ahamoniylar davlati tarkibi ostida bo‘lgan bo‘lsada, keyinchalik o‘zi mustaqil ajralib chiqqandan so‘ng, Makedoniyalik Aleksandr va hatto Salavkiylar hukmronligi davrida ham mustaqqil davlat hisoblangani buning yaqqol isbotidir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. Abdullayev A. O‘rtal Osiyoda qadimgi boshqaruv va ilk davlatchilik tarixshunosligi. – Toshkent, 2009.
2. Abu Rayxon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tanlangan asarlar. – Toshkent: “Fan”, 1968. – 487 b.
3. Azamat Ziyo. O‘zbek davlatchiligi tarixi. – Toshkent, 2000.
4. Boynazarov F. Qadimgi dunyo tarixi. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashryoti, 2004. – 386 b.
5. Egamberdiyeva N. Arxeologiya. – Toshkent: Fan va tehnologiya nashryoti. 2011.- 200 b.
6. Firdavsiy A. Shoxnoma. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi nashryoti, 2012. – 188 b.

7. Qorayev S. O‘zbekiston viloyatlari toponimlari// O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. – Toshkent, 2005. – B. 174-175.
8. Rtveladze E.V. O‘zbekistonning tarixiy o‘tmishi. – Toshkent: San’at jurnali nashiryoti, 2009. – 234 b.
9. Saidboboyev Z. Tarixiy Geografiya. – Toshkent: “Noshir”, 2010. – 226 b.
10. Saidqulov T.S. O‘rta Osiyo xalqlarining tarixi tarixshunosligidan lavhalar. 1-qism. – Toshkent, 1993.
11. Tarn William W. Alexander the Great: Volume 1, Narrative. – Cambridge University Press, 1948. – 164 p. (XI,160, 1 p., 1 map.)
12. Tolibekov R. Xorazmning Antik davri tarixiga oid yozma man’balar // Integratsiyalashgan ta’lim va tadqiqot jurnali.
13. Zoxir Alam. Qadimgi tarixchilar O‘rta osiyo haqida. – Toshkent: Yurist-media markazi nashryoti, 2008. – 183 b.
14. Бичурин Н.Я. Собрания сведений о народах, обитавших в Средней азии в древние времена. – М. Л., 1950. – 379 с.
15. Вайнберг Б.И. Монеты древнего Хорезма. – Москва: Издательство Наука главная восточной литературы, 1977. – 303 с.
16. Квинт Курций Руф. История Александра Македонского. Издательство Московского университета, 1993. – 449 с.
17. Кошеленко Г.А., Гайбов В.А. Проблемы истории, филологии, культуры №17. – Магнитогорск: МДП, 2007. – 1-21 с.
18. Массон В.М. Страна Тысячи Городов. – Москва, 1966. – 125 с.
19. Рапопорт Ю.А., Сычева Н.С., Вайнберг Б.И. Культура и искусство древнего Хорезма. – Москва: Наука, 1981.
20. Толстов С.П. Древний Хорезм. – Москва: Издание МГУ, 1984. – 435 с.
21. Толстов С.П. Древний Хорезм. Опыт историко-археологического исследования. – Москва: Издание МГУ, 1948. – 346 с.
22. Шоффман А.С. Александр Македонский как дипломат// Античный мир и археология. Вып., 8. – Саратов, 1990. – С. 21-43.
23. Эшchanov Р.А. Хорезм в истории государственности Узбекистана // Ташкент: Издательство “Узбекистон файласуфлари миллий жамияти”, 2013. – 336 с.